

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

|   |                        |   |
|---|------------------------|---|
| <i>Lutfillova Xamida</i>  | <i>Murodillova</i>     | Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич                             |
| “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ         |                        |   |
| ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА   |                        | 12-17   |
| <i>Ezhambergenov Xaitboy</i>  | <i>Xamidulla</i>       | Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли                            |
| ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ         |                        |   |
| ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)   |                        | 18-25   |
| <i>Esonov Ziyodbek</i>  | <i>Yuldashevich</i>    | Esonov Ziyodbek Yuldashevich                                    |
| QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI                              |                        | 26-31   |
| <i>Mamatqulov Bekzod</i>  |                        | Mamatqulov Bekzod   |
| O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI |                        |   |
| VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI                             |                        | 32-38   |
| <i>Asadova Ra'no</i>  | <i>Baymanovna</i>      | Asadova Ra'no Baymanovna  |
| O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK      |                        |   |
| ISTIQBOLLARI  |                        | 39-42   |
| <i>Saidova Raxima</i>   |                        | Saidova Raxima  |
| O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI         |                        | 43-48   |
| <i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>  | <i>Ergasheva Ra'no</i> | Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi |
| AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI                      |                        | 49-55   |
| <i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>                                       |                        | Iriskulov Bekzod Jaxongirovich                                  |
| TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM      |                        |   |
| MULOHAZALAR   |                        | 56-60   |
| <i>Mirsoatova Sayyora</i>   | <i>Turg'unovna</i>     | Mirsoatova Sayyora Turg'unovna                                  |
| QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI          |                        | 61-66   |
| <i>Luhmonov Shaxzod</i>   | <i>Sayfiiddin</i>      | Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли                                  |
| ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-                    |                        |   |
| ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР   |                        | 67-71   |
| <i>Axmedov Bekzod</i>   |                        | Axmedov Bekzod  |
| SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH    |                        |   |
| TADBIRLARI  |                        | 72-75   |
| <i>Mamatov Jasurbek</i>   | <i>Qodirqul o'g'li</i> | Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li                                |
| NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI    |                        |   |
| (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)                             |                        | 76-80   |
| <i>Saidaxmatov Sharifbek</i>  | <i>Toshpo'latovich</i> | Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich                           |
| SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY       |                        |   |
| YO'NALISHLARI   |                        | 81-88   |

*Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич*  
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ  
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA ..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich*  
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI ..... 135-142

*Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi*  
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
 OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
 TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
 UZBEKISTAN ..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
 TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
 XUSUSIYATLARI ..... 197-202

|  |         |
|--|---------|
| <i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>  |         |
| ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....   | 203-209 |
| <i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>   |         |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....   | 210-216 |
| <i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>  |         |
| IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....  | 217-221 |
| <i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>   |         |
| CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....   | 222-227 |
| <i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>   |         |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....  | 228-233 |
| <i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>  |         |
| TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....  | 234-243 |
| <b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>  |         |
| <i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>   |         |
| SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....  | 244-248 |
| <i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>  |         |
| XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI .....                       | 249-254 |
| <i>Saburov Jaloliddin</i>  |         |
| XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....  | 255-260 |
| <i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>  |         |
| NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                      | 261-265 |
| <i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>  |         |
| FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....  | 266-271 |
| <i>Adilov Zafar Yunusovich</i>   |         |
| MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....   | 272-277 |
| <i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>   |         |
| ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION ..... | 278-282 |
| <i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>  |         |
| TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....   | 283-287 |

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarikovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

|   |         |
|---|---------|
| <i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>                                      |         |
| SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK<br>TAHLILI ..... | 382-385 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>                                     |         |
| INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... | 386-390 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>                     |         |
| ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI ..... | 391-396 |

## 12.00.00 – YURIDIК FANLAR

|  |         |
|--|---------|
| <i>Рузметов Хайрулла</i>   |         |
| ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ<br>КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... | 397-402 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>   |         |
| ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ<br>МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ<br>РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... | 403-410 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Abdubannayev Umidjon</i>   |         |
| AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING<br>RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... | 411-421 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>  |         |
| ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА<br>ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... | 422-427 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>  |         |
| ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА<br>ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... | 428-433 |

|   |         |
|---|---------|
| <i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>   |         |
| ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ<br>МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... | 434-439 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>   |         |
| IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA<br>QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA ..... | 440-446 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Алиев Асилбек Кадирович</i>   |         |
| КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ<br>АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... | 447-451 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Нодирахон Абдурахманова</i>   |         |
| РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ<br>АСПЕКТЫ ..... | 452-462 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>                        |         |
| РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... | 463-469 |

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

|   |         |
|---|---------|
| <i>Xusanova Mohira</i>  |         |
| OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI<br>TAKOMILLASHTIRISH ..... | 470-479 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>   |         |
| ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН<br>ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....   | 480-483 |
| <i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>   |         |
| TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI<br>SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....  | 484-489 |
| <i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>   |         |
| CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA<br>O'RGGATISH .....  | 490-494 |
| <i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>   |         |
| TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK<br>UYG'UNLIGI .....  | 495-500 |
| <i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>  |         |
| MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI<br>RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI .....   | 501-505 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>  |         |
| O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL<br>YONDASHUV .....   | 506-518 |
| <i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>   |         |
| TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING<br>IMKONIYATLARI .....   | 519-524 |
| <i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>  |         |
| SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA<br>O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI<br>SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ..... | 525-529 |
| <i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>  |         |
| MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING<br>O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....  | 530-534 |
| <i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>  |         |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....  | 535-539 |
| <i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>  |         |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....  | 540-545 |
| <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>   |         |
| THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION<br>AND CREATIVITY .....  | 546-550 |
| <i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>  |         |
| THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING<br>COMPUTER GRAPHICS .....  | 551-555 |
| <i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>  |         |
| TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH<br>DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....                                    | 556-564 |
| <i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>   |         |
| ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....  | 565-568 |

**Received:** 31 October 2024

**Accepted:** 5 November 2024

**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TRANSLATION OF A SOCIO-POLITICAL WORK

**Kholmirzayev Bakhtiyor Mirzamahmudovich,**

Candidate of philological sciences, associate professor. NamMTI

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of translations into English of socio-political works written in Uzbek during the years of independence. Indeed, after independence, the practice of direct translation of works written in Uzbek into foreign languages became widespread. This article analyzes the specific features of the translation of socio-political works with the help of examples. At the end of the article, the conclusions obtained as a result of the analysis of the translations are presented.

**Key words:** socio-political, irony, adequate translation, author's style, influence, scientific research, translation, review, analysis.

## IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich,**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. NamMTI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mustaqillik yillarda o'zbek tilida yaratilgan ijtimoiy-siyosiy asarlarning engliz tiliga tarjimalari tahliliga bag'ishlangan. Darhaqiqat, mustaqillikdan so'ng o'zbek tilida yozilgan asarlarni xorijiy tillarga bevosita tarjima qilish amaliyoti keng ommalashdi. Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari masalasi misollar yordamida tahlil qilinadi. Maqolaning oxirida tarjimalarni tahlil qilish natijasida olingan xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosiy, kinoya, adekvat tarjima, muallif uslubi, ta'sir, ilmiy tadqiqot, tarjima, sharh, tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N54>

**Kirish.** Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimalarini tahlil etish bugungi tarjimashunoslikning dolzARB vazifalari sirasiga kiradi. Shu jihatdan qaraganda, bunday asarlar tarjimasi maxsus o'rganishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy asarlarni atamalarsiz tasavvur qilish qiyin. Atamalarni boshqa tilga o'girishda ba'zan aynan o'ziday qabul qilish ma'qul yo'l bo'lsa, ayrim hollarda ular tarjima tilida mavjud bo'lgan muqobillari bilan almashtiriladi.

Tarjimachilik tarixida ijtimoiy-siyosiy tarjima xususiyatlarini o'rganish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng bu sohada tub burilish yuz berdi. Hozirga kelib o'zbek tilida yaratilgan asarlar dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilina boshladи. Mustaqil O'zbekistonni dunyoga tanitish, shuningdek, jahon ahlini huquqiy-demokratik davlat qurishdek ulkan niyatimizdan

voqif etishda bunday asarlar tarjimalari muhim o'rin tutadi. Ular jahonning ko'plab rivojlangan davlatlari tillariga tarjima qilinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** XX asrning 20 – 30 - yillarida ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardan asosan marksizm-leninizm klassiklari asarları o'zbek tiliga tarjima qilindi. O'sha davrlarda siyosiy adabiyotlarni Yevropa tillaridan bevosita tarjima qilish borasida yetarli tajriba yo'qligi bois o'zbek tiliga o'girilgan shu sohaga oid asarlar ham faqtgina rus tili orqali amalga oshirilar edi.

G'. Salomov o'zining "Matn, tarjima va istiloh" kitobida tarjima jarayoni va tarjima san'atini tadqiq etishning tipologik, mantiqiy va lisoniy aspektlarini tahlil qilib bergen. [1.36] F. Saidovning "Matn va tarjima" mavzuidagi dissertatsiyasi vorisiylik va istilohot, tarjimada lisoniy me'yor, soddalik va murakkablik mayllari, matn talqini va tarjima, ekvivalentlik va g'ayrimuqobililik, in'ikos va ayniyat qonunining tarjimaga dahldorlik jihatlari, muallif va mutarjim, asliyat bilan tarjimaning o'zaro nisbati va munosabati, badiiy tarjimadan farqli o'laroq, ilmiy va ilmiy-publisistik tarjimaning o'ziga xosligi, aniqlik va erkinlik, shuningdek, hijjalab o'girishning zarari, tahlil va tadqiqotda mantiq va tarjima, qayta yaratish san'atida turli lisoniy qatlamlardan foydalanish zarurati hamda shu singari bir talay masalalarni yoritishga bag'ishlangan.

M. Jabborning "Marksizm-leninizm klassiklari tarjima haqida" maqolasida siyosiy asarlar tarjimasida mazmun aniqligi birinchi masala ekanligi aytildi. Shu muallifning "20 – 30-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasi" maqolasida ham siyosiy tarjima ishlari tarixi haqida so'z yuritilib, 20 – 30-yillarda ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi o'z yo'nalishi bo'yicha bir qadar rivojlangani aytildi. [2.110].

Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan M. Botirbekova o'zining "Kapital" tarjimasiga oid ayrim mulohazalar" maqolasida ham "Kapital"ning o'zbek tiliga aynan rus tili orqali o'girilganini va buning natijasida rus tilidagi ko'plab so'z va iboralar, garchi tilimizda muqobili mavjud bo'lsa ham, aynan harfma-harf o'girilganini ta'kidlaydi.

Dilorom Rashidovning "K. Marks va F. Engels asarlaridagi falsafiy terminologiya (ruscha va o'zbekcha tarjimalarning nemischa asliyat bilan qiyosiy tahlili assosida)" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida, asosan quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan:

1. "K. Marks va F. Engels asarlarida falsafiy terminologiya" deb ataluvchi bobida o'sha davr falsafiy terminologiyasi xususiyatlari, asliyatdagi falsafiy atamalarning shakl va mazmun jihatidan tahlili va mualliflar tomonidan yaratilgan yangi falsafiy terminologiya masalalariga munosabat bildiriladi. [3.31].

2. "O'zbek falsafiy terminologiyasining sovet davri taraqqiyoti" deb nomlanuvchi bob uch bo'limdan iborat bo'lib, ularda uch masalaga e'tibor qaratiladi. Birinchi bo'limda o'zbek falsafiy terminologiyasining oktyabr to'ntarilishigacha va 20-yillar boshlaridagi tarixi; ikkinchi bo'limda o'zbek falsafiy terminologiyasining 1925 – 1966 yilgacha bo'lgan davr falsafiy terminologiyasining shakllanishi; uchinchi bo'limda esa marksizm asoschilari asarlarining o'zbekcha va ruscha tarjimalari misolida o'zbek falsafiy terminologiyasining kelib chiqishi, shakl va mazmun jihatlari tahlil qilinadi. [3.91].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Milliy g'oya targ'iboti va mustaqilligimizni mustahkamlashning ustivor yo'nalishlari borasidagi fikr-mulohazalari, ilg'or jahon tilshunos olimlarining lisoniy tarjimashunoslik borasida yaratgan ishlari, shuningdek, o'zbek tarjimashunoslari tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar ilmiy

maqolamizning metodologik asosi sifatida olindi. Avvalo: “Ijtimoiy-siyosiy atama nima o’zi?” – degan savolga javob topishimiz lozim. Bu borada “O’zbek tilining izohli lug’ati”ga murojaat qiladigan bo’lsak: «Ijtimoiy-siyosiy» iborasi arab tilidan olingan bo’lib, jamiyat va siyosatga, ijtimoiy va siyosiy hayotga, jamoatchilik o’rtasida olib boriladigan ijtimoiy va siyosiy ishlarga oid» [4.316] – degan ma’lumotni uchratamiz. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, «ijtimoiy-siyosiy atama» deganda, avvalo, siyosiy, ma’muriy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olamida ijtimoiy borliqni ifodalash uchun sintaktik va lug’aviy jihatdan ixtisoslashgan, kelib chiqishi nuqtai-nazaridan rang-barang nominativ birliklar tizimi tushuniladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bir tilda yozilgan asarni yoki og’zaki nutqni boshqa tilda ifodalanishini tarjima deymiz. Lekin xoh yozma, xoh og’zaki tarjima bo’lsin, uning o’ziga xos tamoyillari va qonun-qoidalari bo’ladi. Tarjimada ma’noni berish bilangina kifoyalanib bo’lmaydi. Muallif uslubi, asarda aks etgan milliylik, til jozibasi, hatto, asliyat matnida qo’llangan ifoda va tasvir vositalari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida esa bu masalaga yanada jiddiyroq yondashish talab etiladi. Chunki bunday asarlar zaminida butun bir xalq, millatning tarixi, kelajagi, qolaversa, taqdiri yotadi.

Taniqli rus tarjimashunos olimi L. S. Barxudarov tarjima transformatsiyasi, ya’ni bir tildagi matn yoki og’zaki nutqni boshqa tilga o’girishning quyidagi usullarini ko’rsatadi:

- 1) qayta joylashtirish;
- 2) almashtirish;
- 3) qo’shimcha qilish;
- 4) tushirib qoldirish. [5. 190].

Qayta joylashtirish tamoyilida asliyat matnidagi so’z, birikma, gap va matn tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqib qayta amalga oshiriladi.

Dunyoning ko’plab tillariga o’girilgan “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining inglizcha tarjimasi va ruscha nashri bunga misol bo’la oladi.

Asliyatda:

“Bir narsa ravshanki, barqaror va jo’g’rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqaga jo’shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo’la oladi”. [6.9]

Bu matn inglizchaga quyidagicha o’girilgan:

*“But one thing is obvious: the region can achieve dynamic and sustainable development and be an honest partner for the world community only if stability and geopolitical balances are preserved”. [7.4].*

Tarjimaga e’tibor qaratadigan bo’lsak, avvalo, asliyatdan anglashilgan ma’no ingliz tilida to’la aks etgan. Bu erda bir narsani hisobga olish kerakki, o’zbek va ingliz tillarida jumla tuzilishi tartibi bir-biridan tubdan farq qiladi. Natijada so’zlarning gapda joylashuvi biroz o’zgargan. Bu parcha tarjimasida tushirib qoldirish yoki qo’shimcha qilish hollari uchramaydi.

Ayni matnnning ruscha nashrini ko’ramiz:

*“Ясно одно: регион сможет динамично и устойчиво развиваться и быть достойным партнером для мирового сообщества только в условиях сохранения стабильности и геополитического равновесия”. [8.9].*

Bu yerda yuqorida keltirilgan tarjimaning qayta joylashtirish usuli asosida ish ko‘rilgan. Rus tilidagi matn shundoqligicha ingliz tiliga o‘girilgan. So‘zlar joylashuvi o‘zgarmagan. Ma’no to‘la ravishda o‘z aksini topgan. Lekin, asarning ruscha nashrida ba’zi bir sintaktik alomatlar inglizcha tarjimasidan farq qilgan.

Bu borada tarjimonlar almashtirish tamoyilidan ham foydalanishgan. L. S. Barxudarovning aytishicha, so‘z shakli sifatida uning grammatic son, zamon shakli o‘zgarishi mumkin bo‘lsa, nutq bo‘lagi sifatida tarjimada bir so‘z turkumi boshqasi bilan almashadi. Bundan tashqari, sodda gaplar tarjimada qo‘shma gap bilan yoki aksincha holatlar bo‘lishi mumkin. [5.209].

Masalan:

*“Orol dengizi muammosi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi”.* [6.124].

Kitobdan olingan ushbu matn asarning inglizcha tarjimasida quyidagicha ifodalangan:

*“The roots of the Aral Sea problem date back far into the past, but the scope of it has expanded over the last decades”.* [7.75].

Bu erda “orol dengizi muammosi” o‘zbek tilidagi gapda ega vazifasida kelgan bo‘lsa, ingliz tilidagi tarjimasida “The roots” (ildizlari) iborasi gapda ega vazifasida kelgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida ikkita sodda gapdan tashkil topgan matn inglizchada bitta qo‘shma gap bilan ifodalangan. Demak, tarjimada gapning grammatic shakli o‘zgargan. Lekin asliyatda berilgan «xavfli darajada» iborasi ingliz tilida ifodasini topmagan.

Ushbu matn rus tiliga quyidagicha berilgan:

*“Проблема Аральского моря корнями уходит в далекое прошлое. Но угрожающие масштабы приняла в последние десятилетия”.* [8.118].

Shu o‘rinda bir misolga e’tibor qaratamiz:

*“Biz yengil yo‘lni qidirmadik”.* [6.192].

Ushbu gap kitobning inglizcha tarjimasida quyidagicha ifodalangan:

*“We have selected the most difficult road”.* [7.165].

Bir qarashda, asliyatda berilgan “Biz engil yo‘lni qidirmadik” inkor gapi inglizchaga “We have selected the most difficult road” tarzida tasdiq shaklida o‘girilgan. Lekin ma’no o‘zgarmagan. Bunday tarjima tamoyili haqida L. S. Barxudarov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Asliyatda tasdiq shaklida berilgan gap yoki iborani tarjima tilida inkor shaklda ifodalash yoki aksincha tarjima qilish *antonimik tarjima* deb yuritiladi”. [5.215]. Yuqoridagi misolimizda inkor shaklida berilgan butun boshli gap tasdiq shaklda ifodalangan.

Ushbu gap kitobning ruscha nashrida quyidagicha berilgan:

*“Мы же выбрали наиболее трудный путь”.* [8.177].

Ma’lumki, ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi badiiy tarjimaga nisbatan bir qadar aniqlikni talab qiladi. Badiiy tarjimada asliyat matnidan anglashilgan ma’noni qayta yaratish uchun turli badiiy vositalar, har xil bo‘yoqlardan foydalangan holda erkinroq harakat qilish imkoniyati bor. Ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasida ma’no - birinchi darajali masala. Bunda aniqlik birlamchi.

Bu borada amalga oshirilgan tarjimalarda ba’zan kamchiliklarga ham duch kelamiz.

Asarning asliyat matnidan berilgan “Aqidaparastlikni yoyish” [6.44] iborasi muallif tomonidan o‘z o‘rnida mahorat bilan qo’llanilgan. Asar muallifi ushbu iboradan bugungi kunda dolzarb bo‘lgan muammolarni hal etish borasidagi fikrlarini ifodalashda foydalangan.

Ushbu ibora asarning Angliyada “Curson” nashriyotida nashr qilingan inglizcha nashrida “to disseminate fundamentalism” [7.25] tarzida berilgan. Aslida ingliz tilidagi “to disseminate” so‘zi “to spread” so‘zi bilan sinonim bo‘lib, o‘zbek tiliga “yoymoq”, “tarqatmoq” [9.174] degan ma’nolarni beradi. Aynan shu so‘z asarning yana bir – (“O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan) tarjimon V. Pogorelskiy tomonidan o‘girilgan inglizcha tarjimasida ham “to disseminate” deb tarjima qilingan. Bu erda tarjimonlar so‘z tanlashda to‘g’ri va ma’qul yo’ldan borishgan. Shu yerda bir narsaga e’tibor qaratish kerakki, asar muallifi “Islom fundamentalizmi-aqidaparastlik” deb ana shu “islom fundamentalizmi” ham aqidaparastlikning bir ko‘rinishi ekanligini ta’kidlamoqda. [6.44]. Tarjimonlar ham “aqidaparastlik” so‘zini “fundamentalizm” deb tarjima qilganlar.

Yuqorida, «aqidaparastlik»ni «fundamentalizm»ning bir ko‘rinish sifatida ko‘rdik, tarjima ishida ham bu narsa o‘z aksini topgan. Lekin, tarjima ishini tahlil etishda davom etsak, asliyat matnidagi «aqidaparastlarning maqsadi» [6.45] iborasi asarning Buyuk Britaniyada chop etilgan inglizcha tarjimasida «Islamists are aiming» [7.26] deb berilgan. Ya’ni, «aqidaparastlar» - «Islamists» tarzida o‘girilgan. Aynan shu ibora asarning V. Pogorelskiy tarjimasida esa “Islamists target” [10.39] tarzida berilgan. Vaholanki, asliyat matnida “islomchilar”ni aqidaparastlar deb aytilmagan. Bu asliyat matndagi mazmunga tamoman zid.

Mustaqillik sharofati bilan tashkil etilgan O‘zbekiston musulmonlari idorasining diniy-ijtimoiy, ilmiy-adabiy nashri bo‘lmish “Hidoya” jurnali Evropadagi nufuzli axborot agentliklaridan biri bo‘lmish Reyter ma’lumotlariga asoslanib Evropa Ittifoqining o‘zi “Islom terrorizmi” atamasiga qarshi ekanligi to‘g’risida xabar beradi. [11.4]. Maqolada aytishicha, “Islom terrorizmi” yoki “Islom aqidaparastligi” kabi nomunosib va noilmiy atamalardan foydalanishni qonundan tashqari deb e’lon qilish lozimligini Evropa Ittifoqi tarkibiga kirgan ko‘plab mamlakatlarning nufuzli kishilari ta’kidlamoqdalar. Unda shu sohaga oid mutaxassislar mazkur atamalar Islom sha’niga nomunosib shubha va noto‘g’ri fikrlar tug‘dirishiga urg‘u beradilar. Maqolada Ovrupo Ittifoqining terrorchilikka qarshi kurash bo‘yicha idorasasi rahbari Gijz de Vraysning – terrorchilik jahon dinlarining birontasiga ham xos narsa emas, degan fikrining bugun alohida dolzarblik kasb etishi aytib o‘tilgan.

Aslini olganda aqidaparastlar nafaqat islom dunyosida, balki, boshqa dinlarda ham mavjud. Bundan tashqari bu narsa faqat O‘zbekistonda emas, balki butun dunyo bo‘ylab o‘z xurujini namoyon etmoqda. Aqidaparastlikni fundamentalizm deb olish mumkin, lekin “islomchilar” deb tarjima qilish umuman noto‘g’ri. Tarjima matnini o‘qigan inglizzabon o‘quvchisi islomchilarni aqidaparast, fundamentalist deb tushunishi mumkin. Bu esa boshqa til, boshqa millat, boshqa din vakilida islom dunyosiga nisbatan tamomila zid tasavvur uyg‘otishi mumkin. Bu borada taniqli olim Muhammadjon Imomnazarov “Dinni aqidaparastlik darajasida tushunish insonlar orasida arzimagan narsadan nifoq chiqishiga, balki og‘ir xunrezliklargacha olib kelishi mumkin. Bunday yondoshuvlarda turli din vakillari orasidagina emas, hatto bir dinga e’tiqod qiluvchilar orasida ham qonli nizolar kelib chiqishi hech gap emas” [12.51], - deya e’tirof etadi. Aslini olganda «islom» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, Muhammad payg‘ambar asos solgan din; musulmon dini. [13.336]. Shunga ko‘ra «islom»chi islom diniga e’tiqod qiluvchi kishi ma’nosini anglatadi. Buni negadir g‘arb tarjimonlari rus tiliga «islamistъ», ingliz tiliga «Islamists» tarzida o‘girishgan. Go‘yo bu bilan asliyat matnida berilgan «aqidaparast» so‘zining ma’nosini o‘z tillarida qoyilmaqom ochib berganday bo‘ladilar. Ammo, bu erda jiddiy muammo bor. U ham bo‘lsa, islom diniga bo‘lgan

munosabat masalasi, ya'ni yuqoridagi misolda ta'kidlanganidek, xalqaro ijtimoiy-siyosiy lug'atlarda so'z yasovchi qo'shimcha bo'l mish «-ist»dan nojo'ya, noo'rin foydalanishdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir davr ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi masalasiga o'ziga xos nuqtai-nazardan qaralgan. Sobiq ittifoq davrida asosiy e'tibor rus tilidagi markscha-lenincha ruh bilan sug'orilgan asarlarni o'zbekchaga o'girishga qaratilgan bo'lsa, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, asosiy e'tibor jahon hamjamiyati bilan tenghuquqli munosabatlarni o'rnatish tomon burildi. Bunda umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suruvchi asarlar xorijiy tillardan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga va o'z navbatida o'zbek tilida yaratilgan sara asarlarni xorijiy tillarga bevosita tarjima qilish masalasi diqqat markazga chiqdi. Buning uchun shu soha terminologiyasi etarli darajada rivojlangan bo'lishi bilan birgalikda, tarjimon asliyat tilini mukammal bilishi talab qilinadi. Asliyat asarini tarjima tilida ta'sirchan va tushunarli qilib ifodalash uchun ravshan so'zlar va ochiq uslub kerak bo'ladi. Bu albatta shu sohada yaratilgan lug'atlar bilan ham bog'liqdir.

Kelajakda ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi borasida katta-katta ilmiy izlanishlar olib borilsa va shu sohada asliyatdan tarjima ishlarini amalga oshirish imkonи yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Саломов Ф. Матн, таржима ва истилоҳ. Т. : 1989.
2. Жабборова М. 20-30 - йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий адабиётлар таржимаси. "Таржима муаммолари", мақолалар тўплами. Т.: 1991.
3. Раширова Д. "К. Маркс ва Ф. Энгельс асарларидағи фалсафий терминология" (улар асарларининг русча ва ўзбекча таржималарини немисча аслияти билан қиёсий ўрганиш асосида). Дисс. Т.: 1972.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли, "Рус тили" нашриёти, М.: 1981. 1-том.
5. Бархударов Л. Язык и перевод. -М.: 1975. - С. 190.
6. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
7. Karimov I. Uzbekistan is on the Threshold of the Twenty-First Century: Threats to Security, Conditions of Stability and Guarantees for Progress, -G.B.: "Curzon", 1997.
8. Каримов И. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. -Москва: Дрофа, 1997.
9. Macmillan English Dictionary, for Advanced Learners, United Kingdom, 2004.
10. Karimov I. Uzbekistan is on the Threshold of the Twenty-First Century: Threats to Security, Conditions of Stability and Guarantees for Progress, -T.: "Uzbekistan", 1997.
11. Европа Иттифоқи "Ислом терроризми" атамсига қарши. Ҳидоя. Ўзбекистон мусулмонлари идорасининг диний-ижтимоий, илмий-адабий нашри. Тошкент, 2006, 4-сон.
12. Имомназаров М., Эшмуҳаммедова М. Миллий маънавиятимиз асослари, Тошкент, "Тошкент ислом университети", 2001, -Б.51.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Москва, 1981, 2-том, -Б.336.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).